

yaxshilaydi, balki mamlakatning xalqaro tranzit yo'laklaridagi o'rnini mustahkamlab, iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlaydi.

Shuningdek, Avtomobil yo'llarini rivojlantirish Respublika maqsadli jamg'armasining tashkiliy-huquqiy maqomini aniq belgilash, hisobotdorlik va audit mexanizmlarini joriy etish mamlakatda yo'l infratuzilmasini moliyalashtirish tizimini takomillashtirishning asosiy sharti sifatida qaralishi dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasining. Avtomobil yo'llari to'g'risida qonuni. Toshkent sh. 2007 yil 2 oktyabr. O'RQ-117. <https://gov.uz/uzavtoyul/>*

2. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l xo'jaligi tizimini chuqur isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni Toshkent sh. 2019 yil 9 dekabrda PF-5890-son.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida" qarori Toshkent sh. 2019 yil 9 dekabr PQ-4545-son.*

5. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019-yil uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini prognoz qilish va davlat byudjeti parametrlari, shuningdek, 2020-2021-yillar uchun byudjet maqsadli ko'rsatkichlari to'g'risida"gi Qarori, Toshkent, PQ-4086.*

6. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yo'l xo'jaligi sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. Toshkent sh. 2023 yil 10 oktyabr PQ-330-son.*

7. *Gulyamov S.S., Jumayev N.X., Raxmonov D.A., Tashxodjayev M.M. Ijtimoiy sohada investitsiyalarning samaradorligi. Monografiya. –T.: IQTISODIYOT, 2019. – 342 b.*

8. *Mexanizmi finansirovaniya dorojnoy infrastrukturi v Rossii i mire. Moskva 2015 <https://books.google.co.uz/books?id>.*

ISLOMIY MOLIYA PRINSIPLARI VA ULARNI QO'LLASHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

***Safarova Nodira Ashuralievna
Ulashov Diyor Javodovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti***

Annotatsiya. Mazkur tezisdan O'zbekiston moliya bozorini diversifikatsiya qilish, aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirish hamda

xalqaro islomiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida islomiy moliya prinsiplarini bank-moliya tizimiga joriy etish masalalari tadqiq etildi. Tadqiqot doirasida amaldagi bank qonunchiligi va Soliq kodeksida islomiy moliyaga xos munosabatlarni (murobaha, musharaka, mudaraba) amalga oshirishda yuzaga kelayotgan huquqiy va me'yoriy to'siqlar tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur to'siqlarni bartaraf etishga qaratilgan fiskal va institutsional mexanizmlarni shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. O'zbekistonda islomiy moliya institutlari faoliyatini tashkil etish uchun maxsus huquqiy me'yorlarni ishlab chiqishda Malayziya tajribasini o'rganish asosida amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish bo'yicha amaliy tavsiyalar bildirildi etildi.

Kalit so'zlar: *Islomiy moliya, huquqiy rejim, bank qonunchiligi, murobaha, musharaka, mudaraba, sukuk, soliq kodeksi, ribo, ijora bitimi.*

O'zbekiston Respublikasida islomiy moliyalashtirish tamoyillarini joriy etish va rivojlantirishning dolzarbligi bir qator strategik, ijtimoiy va huquqiy omillar bilan izohlanadi. Tadqiqotning eng asosiy zaruriyati mamlakat aholisining talabidan kelib chiqqan holda, ularga moliyaviy xizmatlarni taqdim etish hamda aholi turmush darajasini oshirishdir. O'zbekiston aholisining qariyb 35 millioni moliyaviy munosabatlarga kirishgan bo'lsa-da, ulardan atigi 65% bank xizmatlaridan foydalanmoqda. Qolgan 35% esa, ya'ni taxminan 12 million kishi, diniy e'tiqod yoki boshqa sabablarga ko'ra an'anaviy (foizli) bank xizmatlaridan foydalanishni istamaydi²⁷⁵. Bu katta aholi qatlamini moliya tizimiga jalb qilish va ularning iqtisodiy munosabatlardagi samaradorligini oshirish uchun islomiy moliya mexanizmlarini joriy etish zaruratini taqazo etadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining bank qonunchiligi va Soliq kodeksida foiz tushunchasiga asoslangan an'anaviy modelda faoliyat yuritmoqda²⁷⁶. Aynan shu jihat Islomiy moliyaning eng ko'p qo'llaniladigan instrumentlari, xususan, tovar savdosiga asoslangan "murobaha" hamda foyda va xatar taqsimlanishiga asoslangan "musharaka" kabi munosabatlarga kirishishda huquqiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Aynan, mol-mulkning bir bitim doirasida ikki marta egalikni o'zgartirishi (murobaha) kabi holatlarning mavjudligi amaldagi qonunchilik doirasida "ikki tomonlama soliqqa tortish" xavfini yaratadi²⁷⁷. Ushbu me'yoriy to'siq islomiy moliyaning iqtisodiy samaradorligini pasaytirib, uning bozorda rivojlanishiga bevosita to'sqinlik qiladi.

Eetirof etish kerakki, so'nggi yillarda islomiy moliyani rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-73-sonli Farmoni bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tarkibida Islomiy moliya bilan bog'liq ishlarni muvofiqlashtirish bo'limining tashkil

²⁷⁵ Y'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Moliya bozori monitoringi 2023. - Toshkent, 2024. - 89-b.

²⁷⁶ O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. - 25.04.1996-yildagi 207-I-son. - 5-modda.

²⁷⁷ Ismailov S. "Soliq qonunchiligi va Islomiy moliya" // Soliq va boj jurnali. - 2023. - №3. - 18-b.

etilishi²⁷⁸, shuningdek, "Islomiy moliya" to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, moliyaviy bozorning shaffofligini oshirish, xalqaro islomiy investitsiyalarni jalb qilish masalalarini milliy siyosatga va iqtisodiy rivojlanish strategiyalariga kiritish – islomiy moliya institutlarini joriy etishning qanchalik dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbekistonda islomiy moliya institutlarini joriy etishning asosiy muammolari quyidagi birlamchi to'siqlarda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, amaldagi O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni va Fuqarolik kodeksi foiz (ribo) tushunchasiga asoslangan an'anaviy bank-kredit operatsiyalarini asosiy me'yor sifatida belgilaydi. Islomiy moliya prinsiplari esa foiz asosidagi qarz berishni qat'iy taqiqlaydi va barcha bitimlarni aktivga asoslangan savdo (murobaha), ijaraga berish (ijora) yoki foyda va xatarni taqsimlash (mushoraka, mudoraba) shaklida talab qiladi. Natijada, mavjud huquqiy noaniqliklar sababli banklarning shariatga muvofiq moliyaviy bitimlar tuzishi qiyinlashadi.

Ikkinchidan, islomiy moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligiga eng salbiy ta'sir ko'rsatadigan omil – ikki tomonlama soliqqa tortish xavfidir. Masalan, murobaha bitimida shariat tamoyillari asosida faoliyat olib boradigan bank avval mol-mulkni sotib olgani uchun soliq to'laydi, so'ng uni mijozga ustama narx evaziga sotgani uchun yana soliq to'laydi. Soliq kodeksi bunday moliyaviy operatsiyalarni ikki xil savdo bitimi deb hisoblagani uchun, xuddi shu aktivdan ikki marta QQS yoki boshqa soliqlar undiriladi. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, bunda islomiy moliyalashtirishning mijoz uchun umumiy xarajati an'anaviy kreditlardan o'rtacha 5-7% gacha qimmatroq bo'lishiga olib keladi²⁷⁹. Bu esa islomiy moliyaning raqobatbardoshligini pasaytiruvchi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Uchinchidan, yirik islomiy moliya instrumentlarini, masalan, sukuk chiqarish uchun zarur bo'lgan mustaqil shariat nazorati kengashlari tizimi va islomiy moliya operatsiyalari bo'yicha malakali kadrlar zaxirasi yetarli emas. Ayniqsa, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy bank kabi regulyator (tartibga soluvchi) organlarda ham islomiy moliya bo'yicha maxsus ekspertlarning yetarli emasligi tartibga solish jarayonini sekinlashtirmoqda.

To'rtinchidan, an'anaviy banklar o'z likvidligini asosan foizli davlat qimmatli qog'ozlari orqali boshqaradi. Bu vositalar foizni o'z ichiga olgani sababli, islomiy banklar ulardan foydalana olmaydi. Chunki islomiy moliya institutlarining ustav kapitali halol aktivlardan shakllangan bo'lishi kerak. Mamlakatimizda islomiy banklarning ortiqcha likvidligini shariat tamoyillariga muvofiq boshqarish uchun "repo" operatsiyalariga o'xshash muqobil vositalar yo'qligi bank sektorining samarali ishlashiga to'siq qiladi.

Islomiy moliya instrumentlarini O'zbekiston bank-moliya tizimiga samarali joriy etishda Malayziya tajribasidan foydalanish mumkin. Mavjud to'siqlarni

²⁷⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-73-sonli Farmoni.

²⁷⁹ Xudoyberdiyev A. H. Islomiy moliyalashtirish instrumentlarining soliq yukini tahlil qilish: Xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti. "Iqtisodiyot va Moliya" jurnali. №4. 2023. B. 67-72.

bartaraf etish va tizimni barqarorlashtirish uchun bir qator choralar ko'rish lozim.

Huquqiy va me'yoriy ziddiyatlarni hal etish maqsadida, Malayziyaning dualistik huquqiy yondashuvi (Dual Legal System) tajribasiga tayanib, O'zbekistonda ham "Islomiy moliya to'g'risida"gi alohida qonunni qabul qilish lozim. Bu Islomiy banklarga an'anaviy banklardan alohida, mustaqil huquqiy maqom beradi. Shuningdek, qonun loyihasida Islomiy moliyalashtirish bitimlarining umumiy Fuqarolik kodeksidagi normalardan farqli o'ziga xos huquqiy tabiatini aniq belgilash kerak. Bundan tashqari, Markaziy bank AAOIFI (Islomiy moliya institutlari uchun buxgalteriya hisobi va audit xalqaro tashkiloti) va Malayziyaning Markaziy banki (Bank Negara Malaysia) kabi rivojlangan tashkilotlarning xalqaro normalarini chuqur o'rgangan holda qonunchilikda qiyosiy havola berish amaliyotini joriy etishi lozim.

Bundan tashqari, Malayziya tomonidan qo'llanilgan soliq neytralligi ya'ni Islomiy va an'anaviy bitimlarga bir xil soliq yukini qo'llash tamoyilini joriy etish zarur. Soliq kodeksining tegishli bo'limlariga o'zgartirishlar kiritib, islomiy moliyalashtirishdan olingan daromadlarga an'anaviy foiz daromadlariga nisbatan qo'llaniladigan soliq rejimini joriy etish lozim. Xususan, murobaha va ijora bitimlaridagi mulkning birinchi o'tkazilishi, ya'ni islomiy bank aktivni o'z ustavida shakllantirishi QQS, davlat bojlari va boshqa soliq turlaridan ozod qilinishi shart, aynan shu jihat islomiy moliyaviy xizmatlarni an'anaviy moliyaviy xizmatlarga qaraganda qimmatroq bo'lishiga olib keladi.

Institutsional salohiyat va nazoratni kuchaytirish uchun O'zbekiston Markaziy banki huzurida BNM SAC (Milliy Shariat Kengashi) modeliga o'xshash Milliy Shariat Kengashini tashkil etish va uning qarorlarining yuridik kuchga ega bo'lishini ta'minlash lozim. Tartibga solish masalasi yuzasidan, Markaziy bank Basel III (bank kapitali yetarliligi bo'yicha xalqaro qoidalar) va IFSB (Xalqaro Islomiy Moliyaviy Xizmatlar Kengashi) standartlariga tayanib, islomiy bankchilik uchun shariatga muvofiq ya'ni halol kapital yetarliligi va likvidlik me'yorlarini alohida ishlab chiqishi kerak. Kadrlar rivoji uchun INCEIF (Islomiy moliyada ta'lim bo'yicha xalqaro markaz) kabi institutlar bilan hamkorlikda islomiy moliya mutaxassisligi va shariat auditi bo'yicha uzoq muddatli ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish zarur.

Va nihoyat, likvidlikni boshqarish muammosini hal etish uchun Malayziyaning tajribasiga asoslanib, O'zbekiston Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Markaziy banki qisqa muddatli sukuk (aktivlarga asoslangan islomiy qimmatli qog'oz, obligatsiyaning shariatga muvofiq muqobili) chiqarish amaliyotini yo'lga qo'yishi lozim. Shuningdek, Islom Taraqqiyot Banki bilan hamkorlik qilgan holda mamlakat hududidagi an'anaviy banklar tizimida Islomiy "darcha" larni joriy qilmog'i lozim.

O'zbekistonda islomiy moliya tizimini joriy etish jarayoni murakkab, ko'p bosqichli va tizimli yondashuvni talab etadi. Chunki bu tizim nafaqat moliyaviy xizmatlar sohasiga, balki soliqqa tortish, huquqiy tartibga solish, shariat nazorati

hamda xalqaro investitsiya munosabatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, barcha tashabbuslar mamlakatning amaldagi huquqiy, fiskal va institutsional tuzilmasiga mos ravishda, bosqichma-bosqich va izchil tarzda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Quyida keltirilgan takliflar aynan shu maqsadlarga erishishga, huquqiy ziddiyatlarni bartaraf etish, soliq tizimini muvofiqlashtirish, shariat nazoratini institutsional asosda yo'lga qo'yish hamda moliyaviy vositalarni takomillashtirish orqali O'zbekistonda islomiy moliya tizimini samarali joriy etish imkonini berishga qaratilgan:

Birinchiidan, islomiy moliya institutlari faoliyatini tartibga soluvchi alohida qonun ishlab chiqilishi, u amaldagi moliyaviy qonunchilik bilan uyg'unlashgan holda ishlashi zarur.

Ikkinchiidan, murobaha, musharaka kabi bitimlarda ikki martalik soliqqa tortishni bartaraf etish uchun mos normalar kiritilishi lozim.

Uchinchiidan, Milliy Shariat Kengash islomiy moliyaviy mahsulotlarning shariatga muvofiqligini nazorat qilib, yagona standartlarni belgilashi lozim.

To'rtinchiidan, Islomiy "darcha" larni tashkil qilish orqali, bank ustavini halol aktivdan shakllantirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islomiy moliya xizmatlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5537-son qarori, 2024-yil 5-mart.*

2. *"Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 2020-yil 5-noyabr.*

3. *O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. — Toshkent: Adolat nashriyoti, 2022.*

4. *Islamic Financial Services Board (IFSB). Guiding Principles on Shari'ah Governance Systems for Institutions Offering Islamic Financial Services. Kuala Lumpur, 2020.*

5. *Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Shari'ah Standards. Manama, Bahrain, 2021.*

6. *Chapra, M. U. Islamic Economics: What It Is and How It Developed. Islamic Research and Training Institute (IRTI), Jeddah, 2016.*

7. *Obidov, M. (2021). Islomiy moliya asoslari. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.*

8. *Karimov, A. (2023). O'zbekistonda islomiy bank tizimini joriy etish istiqbollari. — "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №4.*

9. *Dusmuratov, B. (2022). Islomiy moliyaviy instrumentlarning huquqiy asoslari. — Toshkent davlat yuridik universiteti ilmiy to'plami.*

- <https://cbu.uz/uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti.
- <https://muslim.uz> – O'zbekiston Musulmonlar idorasi rasmiy sayti.
- <https://lex.uz/uz/> – O'zbekiston Respublikasi Milliy Qonunchilik bazasi.
- <https://islommoliyasi.uz/uz/> – Islom moliyasi sayti.
- <https://ipakyulibank.uz/> – Ipak yo'li banki sayti.
- <https://hamkorbank.uz/> – Hamkor bank sayti.